

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA PEDAGOGLARNING TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH: NORMATIV-HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL OMILLAR TAHLILI

Dilfuza Rasulova Rustamovna,  
Toshkentdagi Webster universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida pedagoglarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish masalasi normativ-huquqiy va institutsional omillar bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Tanqidiy fikrlash pedagogning shaxsiy intellektual salohiyati bilangina emas, balki ta'lim muassasasidagi boshqaruv madaniyati, metodik qo'llab-quvvatlash, malaka oshirish, attestatsiya, davlat ta'lim standartlari, pedagog maqomi va kasbiy rivojlanish tizimi bilan ham belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni, umumiy o'rta ta'limga oid davlat ta'lim standartlari, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ta'lim sifati, pedagog salohiyati va kasbiy rivojlanish masalalari alohida yo'nalish sifatida belgilangan. Maqolada ushbu hujjatlarning pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi bilvosita va bevosita ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** tanqidiy fikrlash, pedagog kompetensiyasi, umumta'lim maktabi, normativ-huquqiy asos, institutsional omil, kasbiy rivojlanish, davlat ta'lim standarti, pedagog maqomi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается проблема развития компетенции критического мышления педагогов в общеобразовательных школах в контексте нормативно-правовых и институциональных факторов. Критическое мышление определяется не только индивидуальным интеллектуальным потенциалом педагога, но и культурой управления в образовательном учреждении, методической поддержкой, системой повышения квалификации, аттестацией, государственными образовательными стандартами, статусом педагога и системой профессионального развития.

В Законе Республики Узбекистан «Об образовании», Законе «О статусе педагога», государственных образовательных стандартах общего среднего образования, Стратегии развития на 2022–2026 годы, а также в стратегии «Узбекистан — 2030» вопросы качества образования, педагогического потенциала и профессионального развития выделены как отдельные направления.

В статье раскрывается непосредственное и косвенное значение данных документов в развитии критического мышления у педагогов.

**Ключевые слова:** критическое мышление, педагогическая компетенция, общеобразовательная школа, нормативно-правовая база, институциональный фактор, профессиональное развитие, государственный образовательный стандарт, статус педагога.

**Abstract.** This article analyzes the issue of developing critical thinking competence among teachers in general secondary schools in the context of normative-legal and institutional factors. Critical thinking is determined not only by the teacher's individual intellectual potential, but also by the management culture of educational institutions, methodological support, in-service training, certification, state educational standards, the status of the teaching profession, and the system of professional development.

In the Law of the Republic of Uzbekistan "On Education," the Law "On the Status of the Teacher," the State Educational Standards for general secondary education, the Development Strategy for 2022–2026, and the "Uzbekistan–2030" Strategy, issues related to the quality of education, pedagogical potential, and professional development are identified as separate priority areas.

The article reveals the direct and indirect significance of these documents in developing critical thinking among teachers.

**Keywords:** critical thinking, pedagogical competence, general education school, normative-legal framework, institutional factor, professional development, state educational standard, teacher status.

**Kirish.** Zamonaviy umumta'lim maktabi oldida turgan vazifa faqat o'quv dasturidagi mavzularni o'rgatishdan iborat emas. Bugungi maktab o'quvchilarga tayyor bilimni yetkazuvchi muassasa emas, balki ularni fikrlashga, savol berishga, axborotni tanlashga, dalil va xulosani farqlashga, o'z pozitsiyasini asoslashga o'rgatuvchi ijtimoiy-pedagogik muhit bo'lishi kerak. Bu vazifa, avvalo, pedagogning o'z kasbiy tafakkuri bilan bog'liq. Tanqidiy fikrlay olmaydigan pedagog o'quvchida mustaqil fikr, tahliliy yondashuv va asoslangan qaror chiqarish ko'nikmasini izchil shakllantira olmaydi.

Pedagogning tanqidiy fikrlashi faqat shaxsiy qobiliyat yoki individual tajriba natijasi sifatida qaralsa, muammoning muhim qismi e'tibordan chetda qoladi. Chunki maktabdagi boshqaruv tartibi, metodik birlashmalar faoliyati, rahbarlik uslubi, ichki nazorat, dars tahlili, malaka oshirish va attestatsiya tizimi pedagogning fikrlash madaniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pedagoqlarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish masalasini normativ-huquqiy va institutsional omillar kesimida o'rganish zarur.

**Adabiyotlar tahlili.** Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi zamonaviy pedagogika va ta'lim nazariyasida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biridir. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda u asosan mantiqiy, reflektiv va asoslangan qaror qabul qilish jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Richard H. Ennis tanqidiy fikrlashni dalillarga asoslangan, mantiqiy va reflektiv tafakkur sifatida izohlaydi. Peter A. Facione esa uni tahlil, baholash, izohlash va xulosa chiqarish kabi kognitiv ko'nikmalar majmui sifatida belgilaydi.

Xalqaro ta'lim siyosatida OECD tanqidiy fikrlashni XXI asr ko'nikmalarining muhim komponenti sifatida ko'rib, uni ijodkorlik va muammoli vaziyatlarni hal qilish bilan bog'laydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda pedagoqlarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish normativ-huquqiy va institutsional omillar kesimida o'rganildi. Metodologik asos sifatida tizimli, kompetensiyaviy va institutsional yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqot davomida normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil va ilmiy adabiyotlarni kontent-tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, maktab ichki boshqaruvi va kasbiy rivojlanish tizimining ta'sirini aniqlash maqsadida institutsional tahlil amalga oshirildi. Natijalarni umumlashtirishda deduktiv va induktiv usullar qo'llanilib, nazariy xulosalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tahlillar va natijalar.** O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni [1] ta'lim sohasidagi asosiy huquqiy munosabatlarni belgilaydi hamda pedagog xodimlar, ta'lim oluvchilar va ularning qonuniy vakillarini ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilari sifatida ko'rsatadi. Bu yondashuv pedagogni faqat ijrochi emas, balki ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida tushunishga imkon beradi.

**Tanqidiy fikrlash kompetensiyasining pedagogik mazmuni.** Tanqidiy fikrlash pedagogik jarayonda uch darajada namoyon bo'ladi. Birinchi daraja — pedagogning

axborotni baholash qobiliyati. Bunda pedagog o'quv materialini, darslik, raqamli manba, metodik tavsiya yoki boshqaruv topshirig'ini mexanik qabul qilmaydi, balki uning maqsadi, asoslanganligi va amaliy natijasini tahlil qiladi. Ikkinchi daraja — pedagogik qaror qabul qilish madaniyati. Pedagog dars metodini, baholash mezonini yoki tarbiyaviy yondashuvni odat bo'lgani uchun emas, balki aniq pedagogik vaziyatga mosligi uchun tanlaydi. Uchinchi daraja — o'quvchida tanqidiy fikrlashni shakllantirish qobiliyati. Bu bosqichda pedagog savol berish, muammoli vaziyat yaratish, dalil bilan ishlash, bahs-munozara tashkil etish va mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltirilgan metodlardan foydalanadi.

Umumta'lim maktabida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning murakkabligi shundaki, bu kompetensiya alohida fan yoki alohida mavzu doirasida shakllanmaydi. U barcha fanlar, sinfdan tashqari faoliyat, tarbiyaviy ishlar, loyiha topshiriqlari, baholash usullari va maktab ichki muhitida uzluksiz namoyon bo'lishi kerak. Shuning uchun pedagogning tanqidiy fikrlash kompetensiyasi maktabning umumiy pedagogik madaniyati bilan bog'liqdir.

Pedagoglarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning birinchi asosiy omili — ta'lim sohasidagi qonunchilik bazasidir. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim olish, ta'lim berish, pedagogik faoliyat, ta'lim sifati va ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan bog'liq umumiy huquqiy doirani belgilaydi. Mazkur Qonun pedagogik faoliyatni davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rsatgani uchun pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va ta'lim sifati oshirishga huquqiy poydevor yaratadi.

Ikkinchi muhim hujjat — "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonundir. 2024-yil 1-fevraldagi O'RQ-901-son Qonun [2] pedagogning huquqiy maqomini mustahkamlash, uning kasbiy faoliyatini himoya qilish va jamiyatdagi o'rmini belgilashga qaratilgan. Bu hujjatning tanqidiy fikrlash bilan bog'liq jihati shundaki, pedagog maqomi mustahkam bo'lmagan muhitda kasbiy mustaqillik, fikr bildirish erkinligi va metodik tashabbus yetarli rivojlanmaydi. Pedagogning huquqiy himoyasi kuchaygani sari uning kasbiy subyekt sifatida faol pozitsiya egallashi uchun sharoit kengayadi.

Uchinchi yo'nalish — davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlaridir. 2024-yil 27-martdagi 157-son qaror[5] bilan davlat ta'lim standartlari va ta'lim dasturlariga oid yangilangan talablar tasdiqlangan. Davlat ta'lim standartlari ta'lim natijalari, bitiruvchilar tayyorgarligi va o'quv jarayoni mazmunini belgilovchi asosiy me'yoriy hujjatlardan biri hisoblanadi. Agar standartlar kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bo'lsa, pedagogdan ham oddiy axborot yetkazish emas, balki o'quvchilarda tahlil, izoh, qo'llash, baholash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish talab qilinadi.

To'rtinchi omil — pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi bilan bog'liq qarorlardir. 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarorda[6] maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tartibini ishlab chiqishda malaka oshirish kurslarini tabaqalashtirilgan dasturlar asosida

tashkil etish, ularning mazmunini pedagoglarning kasbiy, shaxsiy va jamoaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirish vazifasi ko'rsatilgan. Bu holat tanqidiy fikrlashni alohida kompetensiya sifatida emas, balki pedagogning umumiy kasbiy rivojlanish tizimiga kiritish zarurligini ko'rsatadi.

Beshinchi omil — strategik hujjatlardir. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlar malakasini oshirish va maktab ta'limini rivojlantirish vazifalari belgilangan. Xususan, strategiya doirasida 2022–2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish vazifasi qayd etilgan. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida[4] ham malaka toifasiga ega pedagog kadrlar ulushini oshirish, malaka oshirish kurslarining masofaviy yoki aralash shakllarini kengaytirish kabi vazifalar belgilangan.

Mazkur hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O‘zbekistonda pedagog kadrlar salohiyatini oshirishga oid huquqiy baza izchil shakllanmoqda. Biroq tanqidiy fikrlash kompetensiyasi ko'pincha alohida normativ kategoriya sifatida emas, balki ta'lim sifati, kompetensiyaviy yondashuv, malaka oshirish, pedagog maqomi va kasbiy rivojlanish tizimi orqali bilvosita ifodalanadi. Demak, amaliy vazifa — mavjud huquqiy imkoniyatlarni maktab ichki boshqaruvi va metodik ishlar tizimiga aniq mexanizm sifatida kiritishdir.

Pedagoglarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda maktabning ichki institutsional muhiti hal qiluvchi ahamiyatga ega. Normativ-huquqiy hujjatlar umumiy yo'nalishni belgilaydi, lekin ularning real natijasi maktab ichki boshqaruvi, direktor va o'rinbosarlar faoliyati, metodik birlashmalar, pedagogik kengashlar, dars tahlili va kasbiy hamkorlik orqali yuzaga chiqadi.

Birinchi institutsional omil — maktab boshqaruv madaniyatidir. Agar maktabda buyruqbozlik, faqat tekshiruvga asoslangan nazorat va rasmiy hisobot ustuvor bo'lsa, pedagoglarda tashabbus va tanqidiy yondashuv sustlashadi. Pedagog xato qilishdan qo'rqsa, yangi metodni sinab ko'rmaydi. Fikr bildirish imkoniyati cheklangan muhitda esa tanqidiy fikrlash emas, ijrochilik kayfiyati kuchayadi. Aksincha, maktab rahbariyati savol berish, asos so'rash, dalil bilan gapirish, o'zaro tahlil va ochiq muloqotni qo'llab-quvvatlasa, pedagogik jamoada intellektual faollik kuchayadi.

Ikkinchi omil — metodik birlashmalar faoliyatidir. Amaliyotda metodik birlashmalar ba'zan reja tuzish, bayonnoma yozish va dars ishlanmalarini ko'rib chiqish bilan cheklanadi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun esa metodik birlashmalar real pedagogik muammolarni tahlil qiluvchi maydonga aylanishi kerak. Masalan, “o'quvchilar nima uchun mustaqil xulosa chiqara olmayapti?”, “darsdagi savollar nega faqat eslab qolishga qaratilgan?”, “baholash jarayonida dalil keltirish qanday hisobga olinmoqda?” kabi savollar muhokama markaziga chiqishi lozim.

Uchinchi omil — dars kuzatuv va tahlilidir. Dars tahlili faqat kamchilik topishga qaratilgan nazorat shaklida bo'lsa, u pedagogning rivojlanishiga xizmat qilmaydi. Aksincha, dars kuzatuv rivojlantiruvchi tahlilga aylansa, pedagog o'z faoliyatiga boshqa

ko'z bilan qaraydi. Kuzatuv mezonlari ham shunga mos bo'lishi zarur: pedagog o'quvchiga tayyor javob berdimi yoki uni o'ylashga undadimi; darsda muammoli savol qo'yildimi; o'quvchilar javobini dalil bilan asosladimi; turli fikrlar solishtirildimi; xato javob tahlil qilindimi yoki rad etildimi?

To'rtinchi omil — kasbiy rivojlanish va malaka oshirishning mazmunidir. Malaka oshirish kurslari faqat normativ hujjatlar bilan tanishtirish yoki umumiy pedagogik tavsiyalar berish bilan cheklanmasligi kerak. Pedagoglarga argumentatsiya, savol berish texnikasi, muammoli ta'lim, loyiha metodlari, formativ baholash, manba tahlili, raqamli axborotni tekshirish, sun'iy intellekt vositalaridan mas'uliyatli foydalanish kabi amaliy ko'nikmalar berilishi lozim. PQ-231-son qarorda[6] pedagoglarning kasbiy, shaxsiy va jamoaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga urg'u berilgani bu yo'nalish uchun huquqiy imkoniyat yaratadi.

Beshinchi omil — attestatsiya va baholash tizimidir. Pedagog faoliyatini baholashda faqat test natijasi, hujjat yuritish yoki formal ko'rsatkichlar emas, balki dars jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qo'shgan hissasi ham e'tiborga olinishi kerak. 2025-yil 28-fevraldagi 130-son qarorda[7] pedagog kadrlar attestatsiyasi va malaka toifalari bilan bog'liq tartiblar belgilangan. Attestatsiya tizimi pedagogning real pedagogik mahorati va metodik yondashuvini ko'rishga xizmat qilsa, u tanqidiy fikrlashni rag'batlantiruvchi mexanizmga aylanishi mumkin.

**Muammolar va amaliy ziddiyatlar.** Mavjud normativ-huquqiy asoslar pedagoglarning kasbiy rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratadi. Biroq umumta'lim maktablarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda bir qator amaliy ziddiyatlar saqlanib qolmoqda.

Birinchi ziddiyat — huquqiy hujjatlar bilan maktab amaliyoti o'rtasidagi tafovut. Normativ hujjatlarda kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy rivojlanish, ta'lim sifati va pedagog maqomi belgilangan bo'lsa-da, ayrim maktablarda bu talablar rasmiy reja va hisobotlar darajasida qolib ketadi. Pedagogik jarayonning mazmuni esa an'anaviy izoh, yodlash va qayta aytib berishga asoslangan bo'lishi mumkin.

Ikkinchi ziddiyat — metodik ishlarning shakli va mazmuni o'rtasidagi nomutanosiblik. Metodik birlashma, pedagogik kengash, ochiq dars va dars tahlili mavjud bo'lsa-da, ular har doim ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilavermaydi. Ba'zan bu institutlar pedagogik muhokamadan ko'ra rasmiy hujjat aylanishiga ko'proq bog'lanib qoladi.

Uchinchi ziddiyat — pedagogning tashabbusi va nazorat tizimi o'rtasidagi muvozanat masalasidir. Tanqidiy fikrlash erkin savol, mustaqil yondashuv va muqobil qarashni talab qiladi. Nazorat tizimi haddan tashqari rasmiylashsa, pedagog xavfsiz, odatiy va tavakkalsiz usullarni tanlaydi. Natijada innovatsion dars, muammoli topshiriq va ochiq munozara ikkinchi darajaga tushib qoladi.

To'rtinchi ziddiyat — raqamli muhitning ikki tomonlama ta'siridir. Raqamli texnologiyalar pedagog uchun katta imkoniyat yaratadi, lekin tayyor materiallarga qaramlikni ham kuchaytirishi mumkin. Milliy o'quv dasturi va fan dasturlarida raqamli kompetensiya hamda tanqidiy fikrlash masalalari bir-biri bilan bog'liq holda ko'rilmogda. Masalan, informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha o'quv dasturlarida o'quvchilarning raqamli texnologiyalar borasidagi kompetensiyasi va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish vazifasi qayd etilgan. Bu talab pedagogning o'zidan ham raqamli axborotni tanqidiy baholashni talab qiladi.

Umumta'lim maktablarida pedagoglarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi amaliy mexanizmlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

- maktab ichki metodik hujjatlariga tanqidiy fikrlash bilan bog'liq aniq mezonlar kiritilishi kerak. Dars tahlili varaqalari, ochiq dars baholash mezonlari va metodik birlashma rejalari o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, dalillash, savol berish va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko'rsatkichlarini qamrab olishi lozim.

- pedagogik kengashlar rasmiy hisobot shaklidan tahliliy muhokama formatiga o'tkazilishi zarur. Har chorakda kamida bir marta "tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan darslar tahlili", "baholashda dalillash mezonlari", "raqamli manbalar bilan ishlash madaniyati" kabi mavzularda amaliy seminar o'tkazilishi mumkin.

- malaka oshirish kurslarida tanqidiy fikrlash alohida modul sifatida kiritilishi kerak. Bu modul nazariy ta'riflar bilan cheklanmasdan, darsdagi savollarni qayta tuzish, manbalarni taqqoslash, bahs-munozara tashkil etish, loyiha topshiriqlarini ishlab chiqish, AI vositalari yaratgan matnlarni tahlil qilish kabi amaliy mashqlarni o'z ichiga olishi lozim.

- maktab rahbarlari uchun ham alohida metodik tayyorgarlik zarur. Chunki pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish faqat pedagogning vazifasi emas; u rahbarlik uslubi, muassasa ichki madaniyati va nazoratning mazmuni bilan bog'liq. Rahbar dars tahlilini jazolovchi vosita emas, rivojlantiruvchi suhbatga aylantira olishi kerak.

- attestatsiya va rag'batlantirish tizimida pedagogning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlari ham hisobga olinishi lozim. Masalan, muammoli dars ishlanmalari, loyiha asosidagi topshiriqlar, o'quvchilarning mustaqil tahliliy ishlari, metodik tavsiyalar va ochiq dars natijalari baholashda qo'shimcha dalil sifatida olinishi mumkin.

**Xulosa.** Umumta'lim maktablarida pedagoglarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish normativ-huquqiy asoslar va institutsional sharoitlar bilan uzviy bog'liq. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonun, davlat ta'lim standartlari, Taraqqiyot strategiyasi, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi va pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga oid qarorlar bu yo'nalishda zarur huquqiy maydonni yaratmogda.

Shu bilan birga, huquqiy asoslarning o‘zi yetarli emas. Tanqidiy fikrlash maktab ichida amaliy mexanizmga aylanishi uchun metodik birlashmalar, pedagogik kengashlar, dars tahlili, malaka oshirish, attestatsiya va rahbarlik madaniyati mazmunan yangilanishi kerak. Pedagogning tanqidiy fikrlashi u ishlayotgan institutsional muhitdan ajralgan holda shakllanmaydi. Maktabda savol berish, dalil so‘rash, muqobil fikrni eshitish, xatodan xulosa chiqarish va tajribani tahlil qilish madaniyati kuchaysa, pedagoglarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasi ham barqaror rivojlanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son. Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2024-yil 1-fevral, O‘RQ-901-son. Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son. Lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son. Lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2024-yil 27-mart, 157-son. Lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. 2024-yil 21-iyun, PQ-231-son. Lex.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining pedagog kadrlar attestatsiyasiga oid qarori. 2025-yil 28-fevral, 130-son. Lex.uz.
8. Facione P.A. *Critical Thinking: What It Is and Why It Counts*. Insight Assessment, 2015.
9. Ennis R.H. *Critical Thinking*. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, 1996.
10. OECD. *Fostering Students’ Creativity and Critical Thinking: What it Means in School*. Paris: OECD Publishing, 2019.